

## "ISYON VA ITOAT" ROMANIDA QAHRAMONLARINING RUHIY KECHINMALARI

*Olimjonova Gulnoza No‘monjon qizi*

*Sirdaryo viloyati: Guliston davlat universiteti talabasi*

### ANNOTASIYA

Maqola Ulug‘bek Hamdam adabiy merosida o‘ziga xos o‘rniga ega bo‘lishga ulgurgan "Isyon va Itoat" asari haqida. Asarda insonlarning hayot haqidagi tushunchalari, tuyg‘ulari, isyonlari va ularning iymoning belgisi bo‘lmish itoati qalamga olingan. Insoniyat qalbidagi isyonning paydo bo‘lishi sabablari va qanday holatda ushbu isyonga davo topishi yozuvchi tomonidan Odam Ato va Momo Havo, shuningdek, asarda Akbar o‘brazlarida mahorat bilan yoritilib berilgan.

Yozuvchi asardagi yaratgan qahramonlar hayot yo‘llari orqali har qanday holatda ham inson o‘z qalbidagi isyonidan halos bo‘lishi uchun itoatga kelishi lozimligini ta’kidlagan.

**Kalit so‘zlar:** isyon, itoat, tug‘yon, kechinma, iymon, Akbar, tabib, Iskandar, Tursunboy jontalash, Farida, Larisa, Diana.

### ANNOTATION

The article is about the work "Rebellion and Obedience", which managed to gain a special place in the literary heritage of Ulugbek Hamdam. In the work, people's understanding of life, feelings, rebellions and their obedience, which is a sign of faith, are written. The reasons for the emergence of rebellion in the heart of humanity and how to find a cure for this rebellion are skillfully highlighted by the writer in the characters of Adam and Eve, as well as Akbar in the work.

The writer emphasized that the characters he created in the work must obey in any case in order to overcome the rebellion in his heart through the ways of life.

**Key words:** rebellion, obedience, struggle, experience, faith, Akbar, doctor, Iskandar, Tursunboy jontalash, Farida, Larisa, Diana.

### KIRISH

Ulug‘bek Hamdam Abduvahobovich — yozuvchi, tarjimon. 1968-yil 24-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Andijon viloyati Marhamat tumani Yuqori Ravvat mahallasida duradgor oilasida tug‘ilgan. Ulug‘bek zamonaviy o‘zbek adiblari orasida asarlari boshqa tillarga ko‘p o‘girilayotgan va O‘zbekistondan tashqarida e’tirof etilayotgan oz sonli ijodkorlardan biri. Uning "Isyon va itoat" romani, "Yolg‘izlik" qissasi, o‘nga yaqin hikoyasi, "Yangi inson" degan dostoni va she‘rlari ruschaga tarjima bo‘lgan. "Shulardan "Yolg‘izlik" tarjimasidan ko‘nglim to‘lgan", deydi ijodkorning o‘zi.

Ulug‘bek Hamdamning "Tosh" degan hikoyasi va bir qancha she‘rlari inglizchaga o‘girilgan. "Muvozanat" romani va "Tosh" hikoyasi Amerikada e’tirof

etildi. Ulug'bek Hamdamning ijodi adabiyotshunoslar nazariga tushgan. Uning ijodi borasida zukko olim Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov kabi adabiyotshunoslar bitgan yigirmaga yaqin maqola o'zbek va rus tillarida e'lon etilgan.

### Asosiy qism

Ulug'bek Hamdamning "Isyon va Itoat" romani inson taqdiri va munosabatlari masalasiga bag'ishlangan. O'z taqdirining quli bo'lgan inson qalbida jo'shib turga isyoni tufayli va ushbu isyonidan xalos bo'lish uchun qilgan urinishlari faqat soxta erkinlik bilan tugallanadi, halos. Haqiqiy erkinlikka erishish uchun esa u taqdir qulligidan qutilishi lozim, ya'ni itoatga kelishi lozim. Itoat inson hayotida beqiyos tushuncha hisoblanib, uning iymonini yakdil qilishga, va Allohga bo'lgan isyonga qarshi chiqishda asosiy qurol hisoblanadi. Asarda tabib va Akbar obrazlari o'z isyoni o'tida jizg'anak bo'ladi, uzoq yillar davomida qalbini olov qilib yondirib turgan ushbu isyonga umri davomida davo izlashga urinishadi.

O'zbek xalqiga xos xususiyatlar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar Tursunboy obrazida o'zining yorqin ifodasini topgan. Tursunboy obrazi nihoyat samimiy va mahorat bilan yaratilgan. Uni salbiy obraz deb bo'lmaydi, chunki haqiqiy mehnatkash, dala ishlari va uy yumushlarini birinchi o'ringa qo'yadi, ijobiy obraz ham deyish qiyin, chunki u ma'naviy jihatdan boshqalarga o'rnak bo'la olmaydi. Tursunboy-sira tin olmagan, doim ish, ish, ish deb yurgani uchun odamlar uning nomiga orqavarotdan laqab taqib aytishadi: Tursunboyning joni talash jontalash. Ha, haqiqatan ham butun umri davomida bechoraning joni turmushning ikir-chikirlari orasida talashda qoldi. Biroq uning o'zi buni bilmadi, hayot shu, tiriklik shu, deya keldi... Rostdan ham bu ko'plab o'zbek xalqining hayotiy obrazi. Bundaylar insonlar dunyoda yetarlicha topiladi. Ish deb ota-ona, qarindosh-urug', yor-u birodarlardan xabar olishni unutayozganlar yo'qmi! Lekin, shunday mehnat evaziga uyida qozon qaynab tursa. "Qozon o'lgurning go'sht ko'rmaganiga. ham ikki oy bo'ldi", deb uy bekasining kuyinishida ham jon bor. "Dunyoda kolbasa, pishloq degan narsalar ham borligini bilasizmi siz?", degan so'rog'iga Tursunboy o'zicha munosabat bildirib, ularni "kofirning yemishi" deydi. Qahramon shunday hayotga ko'nikib ketgan, uningcha, hech narsani o'zgartirib bo'lmaydi. Bu taqdir. Peshona. O'zi taqdirning quli. Qalbida shunday hayot tarziga nisbatan isyon tugul uning uchquni ham yo'q...

Akbar va Diana kabi obrazlar esa Tursunboy jontalash kabi taqdirning quli emaslar. Ular o'z hayotida hukmron surgan isyon alangalarini butunlay yo'q qilish uchun harakat qilishadi, ular o'z taqdirilariga befarq bo'lmagan holda, oxir oqibat, o'z murodlariga yetishadi. O'z hayot yo'lini o'zgartirish umidida harakat qiladiganlar bilan bir qatorda, hayot sinovlari oldida qaddi bukilib qoladigan insonlar ham talay topiladi. Ushbu asarda Larisa opani shunday insonlar safiga kiritsak bo'ladi. U o'z umri davomida isyon atalmish tiyinga yechim topa olmay, so'nggi yechimni "o'lim" dan

topadi. Afsuski, bu yechim bo‘la olmaydi, chunki Alloh taolo o‘z bandalariga Odam Ato va Momo Havo kabi hayotda uchraydigan zahmatlar orqali o‘z iymonini topishga undagan. Shundagina inson hayot atalmish sinovdan o‘zining go‘zal iymoni bilan o‘ta oladi, va keyingi hayotida ham foniyl dunyoda chekkan zahmatlari uchun mukofotlanadi.

### XULOSA

Romanda isyon oqilona va amaliyl ahamiyatga egaligidan itoat bilan yakun topadi. Ba’zi qahramonlar o‘z isyonlaridan qutula olishadi, va itoatga kelishadi, ba’zilari esa o‘z isyon o‘ti olovda qovurilib yonib, kul bo‘lishadi. Bu asarning ahamiyati shundaki, u turli xil qahramonlarning hayot yo‘llarini hikoya qilish va ma'lum bir ma'noda taqqoslash orqali iymon naqadar beqiyos tushuncha ekanligini uqtirib va insonlarga o‘z iymonini - itoatini topishiga dastur-u amal bo‘la odali desak bejiz bo‘lmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Ulug'bek Hamdam "Isyon va itoat".
2. 9-sinf adabiyoti 2-qism Q. Yo'ldoshov, V. Qodirov.
3. Rasulova, R. (2020), ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG 'ZAKI IJODINI O 'QITISHNING SAMARALI USLUBLARI VA YARATUVCHANLIK, IJODKORLIK QOBILYATLARNI RIVOJLANTIRISH. Science and Education, I(Special Issue 3).